

MAORIFChILAR BILAN UChRASHUV



MAORIFChILAR BILAN UChRASHUV

Bugun So'x tumani xalq ta'limi bo'limi binosida tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayevning soha xodimlari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda tuman hokimi o'rinbosari B. Latipov, XTB rahbariyati va UO'T maktablari direktorlari ishtirok etishdi. Uchashuvda tuman hokimi sohada o'tgan 2020 yili qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar haqida gapirib, muvaffaqiyatlar qatorida kamchiliklar borligini ham ta'kidlab o'tdi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda barcha soha vakillari birtanu birjon bo'lib faoliyat olib borishlari lozimligi qayd etildi.

Uchrashuvda 9 yildan beri So'x tuman XTB mudiri bo'lib ishlab kelgan Amirjon Temirov boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan bu vazifaga munosib va loiyq nomzod qo'yilishi lozimligi tuman hokimi tomonidan ta'kidlab o'tildi. Farg'ona viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'ining buyrug'iga asosan shu kungacha tuman XTB mudiri o'rinbosari vazifasida ishlab kelgan Behruz Husaynov tuman XTB mudiri vazifasini vaqtincha bajaruvchisi etib tayinlandi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2021-03-02 10:12:38